

Date: 3rdDecember-2024

“DEVONI LUG‘ATIT TURK” ASARIDA QADIMGI TURKIY QABILALARNING
TASVIRLANISHI.

Muxtaram Mutalibova

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asari va undagi qadimgi turkiy qabilalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Turkiy qabilalar:tatar,uyg‘ur,chigil,qirg‘iz,qarluq,basmil,o‘g‘uz;adabiy tur va janrlar,sa‘j.

Barchamizga ma‘lumki,”Devoni lug‘atit turk” asari turkiy adabiyotning eng nodir namunasi hisoblanadi.Asar XI asrda yozilgan bo‘lib,unda juda ko‘p qadimiy turkiy xalqlar haqida ma‘lumot berilgan.Bu haqida Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi:”Men turklar,turkmanlar,o‘g‘uzlar,chigillar,yag‘molar,qirg‘izlarning shaharlari,qishloq va yaylovlarini kezib chiqdim,lug‘atlar to‘pladim”, - deb yozadi.Asarda 70 dan ziyod etnonimlar qayd etilgan.Turklarning o‘zini esa 20 ga yaqin qabila qilib ajratgan.

Asar arab tilida yozilgan bo‘lib, uni o‘qish mushkul vazifa edi.Bu vazifani esa professor S.Mutallibov amalga oshirgan,u kitobni 3 tom shaklida bosmadan chiqargan.

Tatar so‘zi devonda bir necha yerda uchraydi. Tatarlar haqida turk qavmlaridan biridir deb ko‘rsatadi. Ularning tili boshqa bo‘lsa ham turkchani yaxshi biladilar deydi. Tatar cho‘llari uyg‘urlar yaqinida degan ma‘lumotlar bor hamda ular yaboqular bilan qo‘shni turishi haqida ham ma‘lumotlar bor.

Uyg‘urlarni esa 43 yerda tilga olib,ularni jumul qabilasi va tangut qabilasi orasida deb ko‘rsatadi.Uyg‘ur so‘zini esa “xud xo‘r” ya‘ni (o‘zi topib yeydigan) so‘zining o‘zgargan shakli deb beradi. Bundan tashqari uyg‘urlarning Ko‘l Bilkaxon ismli shohlari bo‘lgani, ularning alifbosi 24 harfdan iborat bo‘lganligi,uyg‘urlar turk tilida va o‘zaro boshqa tilda so‘zlashlari haqida ma‘lumotlar bergan.

O‘g‘uzlar haqida ularni eng qadimiy va nufuzli qabilalardan biri sifatida O‘rta Osiyo xalqlari va ularning tillari tarixida alohida o‘rin tutadi deb aytib o‘tgan.Mahmud Koshg‘ariy “O‘g‘uz” so‘zini shaxs otidan kelib chiqqan va keyinchalik qabila nomiga aylangan deb ta‘kidlaydi.Olim o‘g‘uzlarning o‘sha davrda tutgan mavqei, tili, kasb-u kori, urug‘-aymoqlari, turar joylari va boshqalarni batafsil yoritib bergan.

Devonda basmillarning shaharlari, turmushlari haqida ma‘lumotlar oz.Lekin ularning yaboqularga qarshi janglarini tasvirlangan bir necha to‘rtliklar mavjud bo‘lib,ularni jumul qabilasi bilan ittifoqchi, jangovar qabila sifatida ko‘rsatadi. Ularning til xususiyatlariga kelganda esa Mahmud Koshg‘ariy qay, yabaqu, tatarlarning tillaridan birmuncha farqli deb ko‘rsatadi.

Qarluqlar haqidagi fikrlar devonning 9 joyida keltirilgan bo‘lib,ular asli turkmanlardandir, ular yetakchi qabilalarga qaram deya tasvirlangan. Devonda qarluqlarning Cho‘g‘ilan nomli boshliqlari haqida ma‘lumot berilgan.Tarixiy



Date: 3rdDecember-2024

ma'lumotlardan kelib chiqib qarluqlar devon yozilishidan avval mashhur bo'lgan va devon yozilgan paytda ular ikkinchi darajali qabilalarga birikib ketgani anglashiladi.

Devonda qirg'izlar bir necha o'rinda tilga olingan. Ular ba'zan yag'molar yonida, ba'zan tatar yaqinida ko'rsatiladi. Qirg'izlar bir turkiy xalqlardi, ularning tillari yolg'iz turkcha edi. Asarda qirg'izlar tiliga oid ma'lumotlar ozdir.

Bugungi kunda o'zbek tilida katta o'rin tutgan qipchoq qabilasi haqida "Devoni lug'atit turk" da ma'lumotlar bor. Ularning xos shaharlari sifatida Tavar shahari va qashqar yaqinidagi bir shaharcha ko'rsatiladi. Tiroz yaqinidagi Qantuan shahari ularning chegarasi deyiladi. Qangli bu qabilaning kattalaridan biri sifatida beriladi. Devonda qipchoqlar chorvachilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangani haqida aytib o'tilgan. Lekin ularning tili haqida asarda ma'lumotlar uchramaydi.

Devon ma'lumotlariga ko'ra, arg'ular O'zgand va Azgish shaharlarida Yashar edilar. Arg'u til xususiyatlarining bir qismi hozirgi kungacha yetib kelishi, ular juda keng hududlarda yashovchi qabilalar orasida yuqori nufuzga ega bo'lgani va mamlakatni idora etish u davrda ko'proq ularning qo'lida bo'lgani bilan izohlanadi.

Chigillar devonda eng asosiy o'rinni egallaydi. Mahmud Koshg'ariyning ko'rsatishicha, o'g'uzlar Jayhundan quyi Chingacha bo'lgan xalqlarni chigillar deb hisoblar ekan. Devonda chigil ismi Iskandar Zulqarnayn tomonidan berilgan deb ko'rsatiladi. Chigillarni O'rta Osiyodagi eng eski xalqlardan ekanligini devonda berilgan ma'lumotlardan bilishimiz mumkin. Olim chigillarning o'g'uzlar bilan juda qadimdan to'qnashib kelganini, ularning bir-birlariga qarshiligi devon yozilgan davrlarda ham davom etishini yozar ekan, o'g'uz tilidagi kamchiliklarni ham ko'rsatib beradi. Shu bilan birga ularga qarshi til jihatdan ishonchli qabilalar boshida chigillar turadilar. Chigillar, koshg'ar, uyg'ur, arg'u, barsag'an va boshqa quyi Chingacha bo'lgan hamma turkiy qabilalar sifatidoshni buyruq oxiriga -g'uchi, -guchi qo'shib aytishi haqida ma'lumot keltirgan.

Shuni ham aytib o'tish kerakki devonda, devonda adabiy tur va janrlar haqida ham ma'lumot berilgan. Bu haqida Mahmud Koshg'ariy: "Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, sa'j (qofiyali nasr) lar, maqolalar, raj va nasr deb ataladigan parchalar bilan bezadim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanilib kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llanadigan hikmatli so'zlardan, maqollardan keltirdim", - deb aytib o'tgan.

Fikrlarimizni xulosalar ekanmiz, "Devoni lug'atit turk" asari tarixiy, adabiy va tilshunoslikka oid buyuk asardir. Asar orqali biz qadimgi turkiy xalqlarning turmush hayoti, ularning kelib chiqishi, geografik o'rni, tili, alifbosi va adabiyotshunosligimizdagi terminlarning qadimgi nomlari bilan tanishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Devoni lug'atit turk". 1-2-3 tom. Mahmud Koshg'ariy
2. "O'zbek adabiyoti tarixi". Nasimxon Rahmonov Toshkent - 2017
3. "Devoni lug'atit turk haqida". G'anijon Abdurahmonov
4. "Devoni lug'atit turk" asarida adabiy til ilk tarmoqlarining yuzaga kelishi haqida. Usmon Sanaqulov

